

# **“SAN`AT SEHRI” musiqa va san`at tanlovini tashkil etish va o`tkazish tartibi to`g`risida NIZOM.**

Mazkur Nizom O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va san`at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida” 2022-yil 2-fevraldagi PQ-112-son qarori ijrosini ta`minlash maqsadida “San`at sehri” musiqa va san`at tanlovi (bundan buyon matnda tanlovlar deb yuritiladi) ni tashkil etish va o`tkazish tartibini belgilaydi.

- **Pul mukofoti: 12 000 000 so`m**

## **1-bob. Umumiy qoidalar.**

- 1.1. Tanlov Respublikadagi madaniyat markazlari, ixtisoslashtirilgan san`at maktablari, bolalar musiqa va san`at maktablari, o`rta maxsus bilim yurtlari o`quvchilari, oily o`quv yurtlari talabalari va erkin ijodkor yoshlar o`rtasida masofaviy (onlayn) o`tkaziladi.
- 1.2. Tanlovni tashkil etish va o`tkazish bilan bog`liq bo`lgan barcha chora-tadbirlar, tanlovning barcha bosqichlarini o`tkazish tashkiliy qo`mita “ART & MUSIC PLANET” MCHJ tomonidan muvofiqashtiriladi.

## **2-bob. Tanlov maqsadlari.**

- 2.1. Iqtidorli bolalar va yoshlarni aniqlash va har tomonlama qo`llab-quvvatlash;
- 2.2. Mehribonlik uylari va imkoniyati cheklangan iste`dod egalarini ijodiy imkoniyatlarini yuzaga chiqarishga ko`maklashish;
- 2.3. Turli millat farzandlarining tinch-totuv yashash, bag`rikenglik va ijodiy o`zaro tushunish tamoyillari asosida birlashishga ko`maklashish;
- 2.4. Ijodkor yoshlarni musiqaga va san`atga bo`lgan qiziqishlarini yanada oshirish;
- 2.5. Musiqa va san`at yo`nalishida yangi nom va iste`dodlarni kashf etish;
- 2.6. Bolalar ijodini ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda yoritish;

## **3-bob. Tanlovni tashkil etish va o`tkazish shartlari**

- 3.1. Ko`rik tanlov masofaviy (onlayn) o`tkaziladi.
- 3.2. Tanlov ishtirokchilarining yosh toifasi yo`nalishi kesimida belgilab olinadi.
- 3.3. Belgilangan talablar va muddatlarga rioya qilinmagan taqdirda, tashkilotchi ishtirokchini tanlovda ishtirok etishdan chetlashtirishga haqli.
- 3.4. Har bir ishtirokchi ixtiyoriy tarzda bir yoki bir nechta nominatsiyalarda ishtirok etishlari mumkin.
- 3.5. Tanlovni o`tkazish jarayonlari bo`yicha kelib chiqadigan nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

## **4-bob. Nominatsiyalar va yosh toifasi**

- 4.1. **Cholg`u ijrochiligi:** (turli cholg`u asboblarda yakkaxon va duetlar, ansambllar, orkestrlar): fortepiano (klassika va estarda), xalq cholg`u va an`anaviy cholg`ular, damli va zarbli cholg`ular, torli, estrada va boshqa cholg`ular) Ijro vaqti 8 daqiqagacha.

- 4.2. **Xonandalik yo`nalishi:** (Estrada, an`anaviy, maqom, baxshichilik, yakkaxon, duetlar, triolar, ansambllar, akademik, xor jamoasi) Ijro vaqti 8 daqiqagacha.
- 4.3. **Xoreografiya:** (yakkaxon, milliy raqs, kichik guruh, katta guruh, xalq raqsi, dunyo xalqlarining raqslari, shou guruhlar, zamonaviy raqs va boshqalar. Ijro vaqti 8 daqiqagacha.
- 4.4. **Teatr aktyorligi:** (etyud, monolog, adabiy parcha, masal, qo'g'irchoq teatri, klounada va boshqa teatr yo'nalishlari. Ijro vaqti 12 daqiqagacha.
- 4.5. **Tasviriy va amaliy san`at:** Rang tasvir, grafika, haykaltaroshlik, miniatyura, naqqoshlik, zardo`zlik, kashtachilik, misgarlik, yog`och uymakorligi, ganch o`ymakorligi va boshqalar. 1-3 dona asar fotosurati va ishtirokchi tomonidan bajarilayotgan jarayon video tasviri (tezlashtirilgan holatda 2-4 daqiqa).
- 4.6. Yosh toifasi: 7-10 yosh, 11-14 yosh, 15-18 yosh, 19-25 yosh

## **5-bob. Tanlov ishtirokchilarini baholash va yutuqlarni taqdim qilish**

- 5.1. Ishtirokchilarning raqobatbardosh chiqishlari umume'tirof etilgan mezonlar bo'yicha baholanadi: texnik mahorat, ijro mahorati (nominatsiya va yosh bo'yicha) va asarni yoshga qarab tanlanishi va boshqalar.
- 5.2. Ishtirokchilarning ijrolari hakamlar hay'ati tomonidan alohida tarzda 100 ballik tizimda baholanadi. Shunga ko`ra:
- 1) 69 ballgacha diplom;
  - 2) 70-79 ball - III-o`rin;
  - 3) 80-89 ball - II-o`rin;
  - 4) 90-99 ball - I-o`rin;
  - 5) 100 ball - Gran Pri.
- 5.3. Tanlovlarning yakuniy natijalari hakamlar hay'atining qarori bilan rasmiylashtiriladi.
- 5.4. Hakamlar hay'atining qarori qat'iy hisoblanadi va qayta ko`rib chiqilmaydi.
- 5.5. Tanlovning barcha ishtirokchilari olgan o`rniga ko`ra diplom va ularning badiiy rahbarlari, o`qituvchilari va jo`rnalozlariga tashakkurnomalar elektron shaklda taqdim qilinadi.
- 5.6. Tanlovning Gran Pri sovrindorlariga diplom, sertifikat va tashakkurnomalarining asl nusxasi pochta orqali yetkaziladi.
- 5.7. Tanlovning Gran-pri sovrindorlariga 10 000 000 so`m pul mukofoti ajratiladi va har bir yo`nalishga 2 000 000 so`mdan teng taqsimlanadi.
- 5.8. Yo`nalishlar kesimida ajratilgan 2 000 000 so`mni 7-14 yosh toifasi uchun 1 000 000 so`m va 15-25 yosh toifasi uchun 1 000 000 so`mdan taqsimlanadi.
- 5.9. Biror bir yo`nalishdan Gran Pri sovriniga loyiq ishtirokchi bo`lmagan holatda, ajratilgan summa boshqa yunalishlarning ishtirokchilari orasidan qo`shimcha gran pri sovrindorlari tanlab olinadi va ushbu ishtirokchilarga taqsimlanadi.
- 5.10. Biror bir yo`nalishning yosh toifasi ishtirokchilari o`rtasida ijro mahoratiga ko`ra muzokarali bo`lgan holatda, belgilangan summa teng taqsimlanadi.
- 5.11. Yangi nomlar kashf etish maqsadida "Art palitra", "Music talents" hamda "Yangi yil yulduzlari" ko`rik tanlovlari gran pri sovrindorlariga "San`at sehri" musiqa va san`at tanlovida ishtirok etishga ruxsat beriladi, ammo gran pri nomzodligiga qo`yilmaydi.
- 5.12. Shuningdek, qo`shimcha tarzda 2 000 000 so`m pul mukofoti quyidagi nominatsiyalar bo'yicha ajratiladi va ishtirokchilarga teng taqsimlanadi.
- 1) "Vatanparvarlik mavzusidagi eng yaxshi ijro"
  - 2) "Milliy san'ati uchun"

- 3) “Eng yaxshi yosh ijrochi”
- 5.13. Gran Pri sovrindorlari va nominatsiya g`oliblariga pul mukofotini taqdim qilish qoidasi, ishtirokchilar soni 500 nafardan oshganda amal qiladi.
- 5.14. Gran pri sovrindorlari va nominatsiya g`oliblarini pul mukofotlari 12-15 ish kunida tashkilot hisob raqamidan o`tkazib beriladi.
- 5.15. Tanlovning shaffofligini ta`minlash maqsadida ariza qabul vaqti davomida ishtirokchilarning ijrolari tashkilotchilar tomonidan oshkor etilmaydi.
- 5.16. Ishtirokchilarning ijrolari ariza qabul vaqti tugagandan so`ng ommaviy oshkor etiladi.
- 5.17. Ishtirokchilar tomonidan ularning ijrolari tashkilotchidan avval ijtimoiy tarmoqlarda ommaviy namoyish etilishi, ishtirokchilar ro`yxatidan olib tashlanishiga sabab bo`ladi.

### **6-bob. Tanlov Materiallariga talablar**

- 6.1. Musiqa, xoreografiya, teatr yo`nalishlari ishtirokchilari taqdim etgan video yozuv aynan “San`at sehri” musiqa va san`at tanlovi uchun ijro etilgan bo`lishi kerak.
- 6.2. Tasviriy va amaliy san`at yo`nalishi ishtirokchilari taqdim etgan asarning ishlanganiga 1 yildan oshmagan bo`lishi shart.
- 6.3. Past sifatli video yozuvlar ishtirok etishga ruxsat etilmaydi.
- 6.4. Ishtirokchi video yozuvini yuborish orqali, tashkilotchi tomonidan ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirishga roziligini tasdiqlaydi.
- 6.5. Ishtirokchi taqdim etilgan materiallarning to`g`riligi va ularning tavsifi uchun javobgardir.
- 6.6. Tanlov talablariga javob bermaydigan materiallar tashkiliy qo`mita tomonidan tanlovdan olib qo`yilishi mumkin.

### **7-bob. Hakamlar hay`ati a`zolari.**

- 7.1. Hakamlar hay`ati a`zolari oily toifali pedagoglar, musiqa va san`at mutaxassislari va professional ijodkorlardan tashkil topgan.
- 7.2. Tanlovning shaffofligini ta`minlash maqsadida hakamlar hay`ati a`zolari tanlovning yakuniga qadar oshkor etilmaydi.

### **8-bob. Tanlovni moliyalashtirish va sarf xarajatlar**

- 8.1. Bir nominatsiyada ishtirok etish uchun ro`yxatdan o`tish: **110 000 so`m.**
- 8.2. Bir ishtirokchi ikkinchi nominatsiyada ishtirok etish uchun ro`yxatdan o`tish: **90 000 so`m.**
- 8.3. Bir oiladan bir nechta ishtirokchi uchun imtiyozli ro`yxatdan o`tish to`lovi har biriga **90 000 so`mdan**
- 8.4. Tanlovda imkoniyati cheklangan, mehribonlik uylari va maktab-internati tarbiyalanuvchilari, ko`p bolali va kam daromadli oila farzandlari tasdiqlovchi hujjatlar bilan imtiyozli tarzda ishtirok etadilar. Imtiyozli ishtirok etish uchun ro`yxatdan o`tish: **70 000 so`m.**
- 8.5. Tanlovda ishtirok etish narxi tashkilotchi tomonidan bir tomonlama tartibda o`zgartirilishi mumkin, shu bilan birga narx o`zgarishiga qadar ariza topshirgan barcha ishtirokchilar qo`shimcha to`lovlardan ozod qilinadi.

8.5. Tanlovga ishtirok etish uchun o`tkaziladigan to`lovlar: hakamlar hay'ati a'zolarining ish haqi, internet, kanselyariya mahsulotlari, Gran Pri sovrindorlariga beriladigan pul mukofotlari, diplomlar va kuboklar uchun ajratiladi.

### **9-bob. Tanlovni o`tkazish va ariza yuborish**

- 9.1. Tanlovga arizalar 15-fevraldan 7-martga qadar qabul qilinadi
- 9.2. Tanlov natijalari 13-15-mart kunlari e`lon qilinadi
- 9.3. Tanlovda ishtirok etish uchun: ishtirokchining guvohnomasi yoki pasporti, ijro asari, anketa va to`lov (chek skrinshoti yoki foto surati) ni administratorga yuboriladi.
- 9.4. Ishtirok etish badal tulovi tashkilotchining hisob raqamiga o`tkaziladi.

X/R: 20208000805568550001

INN: 309873119

MFO: 00165

9.5. To`lov o`tkazilayotganda "ishtirokchining ism familiyasi, San`at sehri tanlovi uchun" deb izoh qoldiriladi.

#### **ANKETA**

1. I.F.O: (ishtirokchi yoki ansambl nomi)
2. Yoshi: (ishtirokchi yoki ansambl)
3. O`qish joyi va sinfi (kursi):
4. O`qish joylashgan manzil: (viloyat, shahar)
5. Ishtirokchining yashash manzili: (viloyat, shahar, mahalla, kōcha, uy)
6. Telefon:
8. Nominatsiya:
9. Janr: (klassik, milliy, estrada va h.k)
10. Asar nomi:
11. O`qituvchi: (I.F.O. mutaxassisligi)
12. Jo`rnavoz: (I.F.O. agar ishtirok etgan bōlsa)
13. Tanlov nomi: "SAN`AT SEHRI"

Arizalar bo`yicha murojaat:

Telefon: +99890 866 80 01

Telegramm: +99890 866 80 01



Bosh tashkilotchi: "ART & MUSIC PLANET" MCHJ

Tashkilot rahbari: Maxkamov Shuxrat Farxodovich

Telefon (mobile): +998991268001

Telegramm: +998991268001

Wats App: +998991268001

E-mail: [artmusicplanet@mail.ru](mailto:artmusicplanet@mail.ru)

Rasmiy telegramm kanali: [t.me/artmusicplanet](https://t.me/artmusicplanet)

Instagram: [www.instagram.com/art.music\\_planet/](https://www.instagram.com/art.music_planet/)

Manzil: O'zbekiston Respublikasi, Qashqadaryo viloyati

Shahrisabz shahri, Zargarlik MFY, Zebolik ko'chasi

Telefon; (75) 522 02 79

Index: 181300

